

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_-yil. Sinflar: 6-“ ”. O‘qituvchi: \_\_\_\_\_

## MAVZU: Qadimgi tarix – taraqqiyotning boshlanishi

### DARSNING MAQSADI:

**a) ta’limiy:** o‘quvchilarga Qadimgi tarix – taraqqiyotning Boshlanishi haqida ma’lumot berish;

**b) tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;

**d) rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

### Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

**a) tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

**b) fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars uslubi:** an’anaviy.

**Dars jihozlari:** darslik, tarixshunoslik atamalari lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)	Ajratiladigan vaqt (reglament)
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

### DARSNING BORISHI:

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi. Insoniyatning qadimgi tarixini turli ixtisosdagi olimlar

o'rganadilar. *Arxeologlar* qadim zamonlarda odamlar yashagan *manzilgohlarda* qazishma ishlarini amalga oshiradilar. *Antropologlar* qadimgi odamlarning suyak qoldiqlarini tekshirib, ularning tashqi qiyofasini tiklaydilar va rivojlanishini o'rganadilar. *Etnograflar* qadimgi odamlarning ko'pgina udumlari, hozirda mavjud qabilalar va elatlarning qadimdan saqlab qolgan xo'jalik va madaniy an'analarini o'rganadilar O'rta Osiyo tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manba zardushtiylarning muqaddas kitobi «*Avesto*»dir. Unda yurtimizning qadimgi tarixiy viloyatlari – *Baqtriya*, *So'g'd*, *Xorazm* aholisi madaniyati to'g'risida hikoya qilinadi. Qadimgi davr tarixiga doir yana bir yozma manba *Behistun* qoyasidagi yozuvlardir. Behistun qoyalari Erondagi *Kirmonshoh* shahri yaqinida joylashgan. Fors shohi *Doro I* buyrug'i bilan qoyaga o'yib yozilgan yozuvlarda, Xorazm, So'g'd, Baqtriya sanab o'tiladi.

**Miloddan avvalgi V asrda** qadimgi yunon tarixchisi *Gerodot* turli mamlakatlarga sayohat qilib to'qqiz kitobdan iborat «*Tarix*» asarini yozdi.

**Milodiy I asrda** qadimgi Rim tarixchisi *Kvint Kursiy Ruf* «*Makedoniyalik Aleksandr tarixi*» nomli asarni yozib, makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni keltirgan Amudaryo va Sirdaryo oralig'i, Farg'ona, Zarafshon vodiylari va Surxondaryo vohasi o'zining serhosilligi va iliq iqlimi tufayli uzoq qadimdayoq obod bo'lgan. Jahondagi barcha xalqlarning tarixi *ibtidoiy jamoa tuzumidan* boshlangan Dastlabki urug' jamoalari ayol kishi, ya'ni ona atrofi da jiplasha boshlagan. Insoniyat tarixidagi bu bosqich ona urug'i davri – *matriarxat* deb ataladi Ancha keyinroq, mehnat qurollari va xo'jalik yuritish shakllari takomillashgani sayin jamoadagi yetakchilik mavqeyi asta-sekin erkak kishiga o'ta boshladi, endi u urug'ga sardor bo'lib qoldi. Olimlar insoniyat tarixidagi bu davrni *patriarxat* – ota urug'i davri – deb atashadi.

**Mustahkamlash:** Darsning ushbu qismida o'quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Olimlar tomonidan tarixni qayta tiklaydigan manbalar nomini aytib bering.
2. Tarixni o'rganishda foydalanilgan qaysi moddiy manbalarni bilasiz?
3. Arxeologlar, antropologlar va etnograflar nimalarni o'rganadilar?
4. Nima uchun arxeologlar insoniyat tarixi ibtidosini «tosh davri» deb atashadi?

**O'quvchilarni baholash:** O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O'TIBDO': \_\_\_\_\_

Sana: “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_-yil. Sinflar: 6-“ \_\_\_\_\_ ”. O‘qituvchi: \_\_\_\_\_

**MAVZU: Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari**

**DARSNING MAQSADI:**

**a) ta’limiy:** o‘quvchilarga Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari haqida ma’lumot berish;

**b) tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;

**d) rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

**Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:**

**a) tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

**b) fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars uslubi:** an’anaviy.

**Dars jihozlari:** darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

<b>DARS REJASI</b>		
<b>№</b>	<b>Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)</b>	<b>Ajratiladigan vaqt (reglament)</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	5 daqiqa
<b>2</b>	Ma’naviyat daqiqasi	
<b>3</b>	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
<b>5</b>	Mustahkamlash	5 daqiqa
<b>6</b>	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
<b>7</b>	Uyga vazifa berish	

**DARSNING BORISHI:**

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi. Olimlar turli mintaqalardan o‘ta soda tosh mehnat qurollari ya sashni biladigan eng qadimgi odam suyaklari qoldiqlarini topib o‘rganganlar, jumladan, Janubiy Afrikadan – *avstralopitek*, Sharqiy Afrikadagi Zinj vodiysidan – *zinjantrop*, Yava orolidan (Indoneziya) – *pitekantrop*, Xitoy hududidan – *sinantrop*, shuningdek, Germaniyadan – *neandertal* va Fransiyadagi Kromanyon g‘oridan – hozirgi qiyofadagi odam – *kromanyon* suyaklari topilgan. Ilk paleolitning oxirlariga kelib *Buyuk muzlik davri* boshlandi. Ibtidoiy odamlar o‘ta qattiq sinovga duch keldi. Bu hol odamlarni yangicha turmush sharoitiga

moslashishga undadi. Bunday paytda kuchlilargina yashab qolgan. Tarix fanida eng qadimgi odamlar *ibtidoiy odamlar* deb ataladi. Ularning makonlari Afrika, Osiyo va Yevropaning ko'pgina hududlaridan topilgan.

**Eslab qoling!** O'rta Osiyoda toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari *Farg'ona vodiysidagi Selungur makonidan va Toshkent vohasidagi Ko'lbuloq anzilgohidan ham topilgan.* Termachilik va ovchilik o'zlashtiruvchi xo'jalik deb kun bilan tun, yil fasllari almashishi, vulqonlar otilishi, yer qimirlashi va boshqa tabiat hodisalari odam e'tiborini o'ziga tortgan. Ana shu hodisalarning sabablarini tushuna olmagan inson momaqaldiraq, yashin, shamol, yomg'ir kabi tabiat kuchlariga sig'ina boshladi. Odamlar guruhi jamoasining biror hayvon yoki o'simlik turi bilan qarindoshlik aloqasiga ishonish *totemizm* deb ataladi Odamni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga e'tiqod fanda *animism* nomini olgan. Qadimgi odamlar u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud baloqazoni bartaraf etishiga ishonoshi *fetishizm deyiladi* So'nggi paleolit davriga oid g'orlar devorlarida topib tekshirilgan rasmlar ham qadimgi odamlarning diniy tasavvurlari to'g'risida hikoya qiladi. Bunday rasmlardan eng qadimiylari Ispaniyadagi *Altamir*, Fransiyadagi *Lasko* va Boshqirdistondagi *Kapova* g'orlaridan topilgan.

**Mustahkamlash:** Darsning ushbu qismida o'quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Eng qadimgi odamlar haqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbekiston hududidagi qaysi paleolit manzilgohini bilasiz?
3. Eng qadimgi odamlarning mashg'ulotlarini sanab bering.
4. Diniy e'tiqod kurtaklari vujudga kelishi sabablarini ayting.
5. Ilk rasmlar qaysi davrda paydo bo'lgan?

**O'quvchilarni baholash:** O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O'TIBDO': \_\_\_\_\_

Ushbu **Tarix 6-sinf** konspektning *to'liq va fondagi yozuvlarsiz* variantini olish uchun




+998946281992 telegram raqamiga yoki  
**@mahmudov24** telegram adresiga xabar yozing

**Narxi 20 000 so'm**

To'lov **FAQAT click, payme** yoki **paynet\*** orqali  
**BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI!** Telefon qilinganda yoki sms yuborilganda javob bermaslik ehtimoli yuqori

*Qolgan sinf namunalari va boshqa hujjatlar bilan telegram kanalimiz yoki web saytda tanishingiz mumkin.*

 Telegram kanal: @uzmaktab  
Web sayt: [www.hasanboy.uz](http://www.hasanboy.uz)

\* paynet telefon raqamiga emas

hasanboy.uz